

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

“TIQXMMI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI

Ro'yxatga olindi

№

“ ” 2023 yil



TASDIQLAYMAN”

“TIQXMMI” Milliy

tadqiqot universiteti rektori

B.Mirzayev

2023 yil

ELEKTR TA'MINOTI VA TIZIMLARI

amaliyotining

O'QUV DASTURI

2-kurs

Bilim sohasi: 300000 – Ishlab chiqarish-texnik soha

Ta'lim sohasi: 310000 – Muhandislik ishi

Ta'lim yo'nalishi: 60710600 – Elektr energetikasi (tarmoqlar va yo'nalishlar bo'yicha)

Toshkent – 2023

Amaliyot dasturi “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti Kengashining
2023 yil “___” _____dagi _____-sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchilar:

D.Qodirov Elektr ta’minoti va qayta tiklanuvchan energiya manbalari kafedrası mudiri, t.f.d., dotsent;

O.Qilichov Elektr ta’minoti va qayta tiklanuvchan energiya manbalari
B.Shodiyev kafedrası assistentlari.

Taqrizchilar:

O.Ishnazarov Fanlar akademiyasi Energetika muammolari instituti direktor o‘rinbosari t.f.d., professor;

E.Bozorov “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti, Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish kafedrası dotsenti, PhD.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son va 2021-yil 10-dekabrda “Iqtisodiyot tarmoqlari uchun muhandis kadrlarni tayyorlash tizimini innovatsiya va raqamlashtirish asosida tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-42-son qarorlarida Qarorlarida ko‘rsatilgan oliy ta’lim jarayonida nazariya va amaliyot yaxlitligi ta’minlash, talabalarning o‘quv-tanishuv, malakaviy amaliyotlarini ishlab chiqarish korxonalarida o‘tkazishni samarali tashkil etish, har bir talabaning tegishli tarmoq (soha)ning muayyan tashkilotlari va korxonalarida malakaviy amaliyotlari tizimli ravishda o‘tkazilishini tashkillashtirish, talabalarning ishlab chiqarish va malakaviy amaliyotlarini sohaviy korxonalar va tashkilotlarning ishlab chiqarish jarayonlari bilan chambarchas bog‘lash, korxonalar va tashkilotlar ob’ektlarida talabalarning amaliyotini tashkil qilish va ustoz-shogird tizimi asosida o‘tilishini ta’minlash hamda talabalarni ishlab chiqarishning yangi me’yoriy hujjatlari, zamonaviy informatsion dasturiy ta’minot mahsulotlari bilan yaqindan tanishtirish, tizimdagi korxonalar va tashkilotlarda talabalarning ilmiy ishlarni bajarishga ko‘maklashish kabi belgilangan vazifalar amalga oshirish maqsadida ushbu amaliyot dasturi ishlab chiqilgan.

Ishlab chiqarish amaliyoti Energetika fakulteti – “Elektr energetika” (tarmoqlar va yo‘nalishlar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishlarining 2 kursi talabalari uchun 6 hafta davomida sohaga oid tashkilotlar va korxonalarda o‘tkaziladi. Amaliyot davrida talabalarga har kuni 6 soatdan har bir ishlab chiqarish korxonasining ishlab chiqarish faoliyati, qo‘llaniladigan texnika va jihozlarni turlari, tuzilishi va ishlashini, ularni ishga tayyorlash tartibini, rostlash asoslari batafsil o‘rgatiladi, murakkab mashinalarning texnologik jarayoni namoyish qilinadi. Shu sababli bu amaliyot kelgusi kurslardagi o‘quv jarayonlarida muhim o‘rin egallaydi, chunki: 3 kursga o‘tayotgan talaba Respublikamizdagi elektr energiya ishlab chiqarish uzatish va taqsimlashga moslashtirilgan korxonalar va tashkilotlar texnikalarining tuzilishini, texnologik ish jarayoni asoslarini, ularni muayyan sharoit uchun ishga tayyorlashni o‘rganib, tegishli bilim va ko‘nikmalar oladi, hamda 3 kurs oxirida o‘tiladigan “Kurs ishlari” amaliyotini o‘zlashtirishlari uchun bazaga ega bo‘ladilar. 3 kursda o‘qitiladigan ixtisoslik fanlari bo‘yicha nazariy mashg‘ulotlarni talaba ongli ravishda tushunishiga zamin tayyorlanadi, elektr energiya ishlab chiqarishdagi elektr jihozlarning har qanday ishchi qismlari, sxemalarini chizish, mexanizmlarining tuzilishini nazariy tahlil qilib, yangi optimal texnik yechimlarni ongli qabul qilishga talaba tayyorlanadi.

Ishlab chiqarish amaliyoti bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmaga qo'yiladigan talablar

Talabalar:

-energiya ishlab chiqarish, elektr stansiya va podstansiyalar zamonaviy texnika va texnologiyalarning elektr uskunalari bilan tanishish;

-energiya ishlab chiqarish, elektr energiya tejamkorligi, elektr uskuna va jihozlarini ishlab chiqaruvchi korxonaning tashkiliy strukturasi o'rganish va amalda qo'llashni;

-ishlab chiqarish korxonasi ob'ektlardagi elektr uskuna va jihozlarini ekspluatatsiya qilishni;

- ishlab chiqarish korxonasi ob'ektlardagi elektr uskuna va jihozlariga texnik xizmat ko'rsatishni;

-elektr uskunalaridan samarali foydalanish masalalarini;

-elektr uskunalarni ekspluatatsiya qilishda tashkiliy va texnik tadbirlar haqida amaliy bilimlarga;

-ishlab chiqarishda elektr qurilmalar va uskunalarni ishlash davrida ish rejimlarini nazorat qilish va rejalashtirishda tashkiliy tajribalarni o'rganish hamda texnik masalalarni yechishni;

-elektr energiyani ishlab chiqarish usullari, stansiyalar, podstansiyalar, uzatish liniyalari, taqsimlash va iste'molchiga yetib borishi haqida amaliy ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak***

ASOSIY QISM

Ishlab chiqarish amaliyotining maqsadi va vazifalari

Amaliyot maqsadi – talabalar elektr energiyasini ishlab chiqarish hamda ulardan foydalanishning amaliy asoslari, qurilmalarning tuzilishi, ishlash prinsiplari, elektr energetika sohasidagi umumiy kasbiy, maxsus tayyorgarlik fanlari bo'yicha nazariy va amaliy ko'nikmalarini chuqurlashtirish hamda mustahkamlash. Ular asosida ishlab chiqarish korxonalarida talabalarning nazariy bilimlarini yetarli amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi, kurs ishlarini bajarish uchun tegishli ma'lumotlar yig'ish. Mashg'ulotlar davomida olingan nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirish, taklif qilingan ishlab chiqarish vazifalarini hal qilishda, individual topshiriqni bajarish jarayonida mutaxassislik bo'yicha muhandislik ko'nikmalarini egallash, ijodiy ish ko'nikmalarini egallash; korxonaga yordam berish uchun ishlarni bajarishda ishtirok etish.

Amaliyot vazifalari quyidagilardan iborat:

- malaka amaliyotini o'tash joyi, reja-jadvali, Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan energiya olishda qo'llaniladigan zamonaviy texnika, texnologiyalar va elektr uskunalardan foydalanish dasturi va tartibi bilan oldindan tanishish;
- malaka amaliyoti reja-jadvali va dasturida nazarda tutilgan barcha topshiriqlarni belgilangan muddatlarda, to'liq hajmda sifatli bajarish;
- qabul qiluvchi tashkilot xodimlari faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlar va ichki mehnat tartib-qoidalariga hamda xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya etish;
- bajarilgan ish haqida muntazam ravishda qayd etish uchun malaka amaliyoti kundaligini har kuni va tartibli yuritish;
- OTM va qabul qiluvchi tashkilotdan tayinlangan malaka amaliyoti rahbarlarining dasturda ko'zda tutilgan ishlarga oid barcha topshiriqlarini o'z vaqtida bajarish;
- elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilish va ularga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha amaliy tajribalar bilan tanishib chiqish. Ishlab chiqarish komplekslarini elektrlashtirish va avtomatlashtirish bo'yicha texnik masalalarini yechishda ijodiy yondoshish;
- amaliyot o'tash hududida tayinlangan malaka amaliyot rahbari nazorati ostida elektr texnik xizmati xodimlariga texnologik jarayonlarni avtomatlashtirishda, montaj va sozlash ishlarida, texnik hujjatlarni tuzishda amaliy yordam berish;
- 3-kursda o'tiladigan mutaxassislik, elektr stansiya va podstansiyalar fanlari bo'yicha ishlariga dastlabki ma'lumotlar to'plash, amaliyotda individual vazifalarini hal qilish uchun tashkiliy, uslubiy va normativ-texnik hujjatlarni o'rganish va ishlab chiqishda ishtirok etish;

- elektr energetika tizimlarining elektr sxemalarini, shuningdek ushbu tizimlarning alohida elementlarini: elektr stantsiyalari, podstantsiyalar, elektr uzatish liniyalarini loyihalash sohasidagi nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni chuqurlashtirish hamda mustahkamlash, asosiy korxonani o'rganish: tashkiliy tuzilma, bunda qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalar. ishlab chiqarish, qabul qilingan loyiha va texnologik qarorlarning texnik-iqtisodiy asoslarini sinovdan o'tkazish usullari, shuningdek, kurs ishi mavzulari bo'yicha materiallar to'plash;
- amaliyot o'tash bo'yicha tegishli hujjatlarni o'z vaqtida rasmiylashtirib borish va hisobot tayyorlash.

Amaliyot o'tish joyi

Malakaviy ishlab chiqarish amaliyoti universitetning o'quv rejasi va mazkur dastur asosida o'tkaziladi. Malakaviy ishlab chiqarish amaliyoti: universitetning "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ, "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" AJ, "Uzbekgidroenergo" AJ, "Uzkabel" AJ, Energetika vazirligi huzuridagi Qayta tiklanuvchi energiya manbalari milliy ilmiy tadqiqot institutida amaliyot o'tkazish rejalashtirilgan.

Amaliyotni tashkil etish va o'tkazishni

Nazariy bilimlarni talabalar ixtisoslik fanlarini o'tish davrida olishadi. Malakaviy ishlab chiqarish amaliyotiga ketishdan oldin rektorat, dekanat, kafedra xodimlari tomonidan talabalarni tegishli amaliyot o'tkazish to'g'risidagi rektor buyrug'i bilan tanishtiriladi, amaliyot dasturini bajarish bo'yicha ko'rsatmalar beriladi va elektr xavfsizligi bo'yicha yo'riqnoma o'tkaziladi.

Talabalar qo'liga amaliyotni o'tish bo'yicha «Uslubiy qo'llanma» lar beriladi. Yetakchi o'qituvchilar tomonidan amaliyotni samarali o'tkazish uchun tegishli maslahatlar beriladi va suhbatlar o'tkaziladi. Amaliyotga uslubiy rahbarligini universitet professor o'qituvchilari, tashkiliy-texnik tomonini esa korxonadan tasdiqlangan amaliyot rahbarlari bajaradilar. Talabalar amaliyotga kelishi bilan xo'jalik yoki korxonada ma'muriyati qarmog'iga o'tishadi. Odatda talabalar amaliyotni ish joylarida elektromontyor lavozimida tasdiqlangan buyruq asosida o'tadilar. Amaliyotni o'tish davrida talabalar xo'jalikda o'rnatilgan ichki tartib qoidalari va mehnat intizomiga rioya qilishlari shart.

Xo'jalikdan tayinlangan rahbarlar talabalarni korxonada umumiy ishlab chiqarish faoliyati bilan tanishtiradi. Muqobil energiya manbalaridan foydalanish va elektr energiya ishlab chiqarish sohasidagi oxirgi yutuqlar bilan tanishtirib mashg'ulotlar o'tkazishadi. Ishlab chiqarishdagi vazifalarni bajarishdan oldin talabalarni rahbar bo'ladigan mas'ul shaxslar joylardagi texnika xavfsizligi qoidalari bilan tanishtirishlari shart.

Universitet tomonidan tayinlangan rahbarlar amaliyot o'tishini nazorat qilishadi, talabalarga amaliyotni o'tkazish va hisobotni tayyorlash bo'yicha maslahatlar berishadi va suhbatlar o'tkazishadi. Talaba tomonidan mehnat intizomi buzilgan taqdirda, korxonada rahbari kerakli ma'muriy choralar ko'rish tadbirini qo'llaydi.

Asosiy dasturini bajarishi bilan bir qatorda har bir talaba rahbar tomonidan shaxsiy topshiriqni oladi.

Amaliyotning taqvimiy rejasi

Malakaviy ishlab chiqarish amaliyoti o'quv rejasiga binoan, 6 hafta muddatga belgilangan:

1 – haftada:

korxonada amaliyot o'tash bo'yicha buyruqlarni rasmiylashtirish;

texnika xavfsizligi va mehnat muhofazasi bo'yicha ko'rsatma va maslahatlarni olish, amaliyotni o'tishda bajariladigan ishlarga topshiriq olish;

korxonalarini elektr ta'minoti va taqsimlash, transformator podstansiyalaridagi texnologik jarayonlar, texnik ko'rsatkichlar, ishlab chiqarishdagi ekspluatatsiya jarayonlari bilan tanishish, olingan natijalar asosida haftalik hisobot tuzish.

2-3 – haftada:

korxonada mavjud generatorlar, transformatorlar, ichki elektr tarmoqlarining texnik ekspluatatsiyasi sharoiti bilan tanishish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va ularning elektr qurilmalari hamda mavjud elektr uskunalarning texnik holatini o'rganish va olingan natijalar asosida haftalik hisobot tuzish.

4-5 – haftada:

elektr ta'minot tarmoqlari, taqsimlash shitlari, shkaflar, avtomatik boshqarish vositalari, ishga tushirish va himoya qilish apparatlari, nazorat o'lchov asboblari, elektr xavfsizlik jihozlarining holati, ulardan foydalanish elektrotexnologik, elektrotermik, elektr yoritish va nurlatish qurilmalarini elektr energiya bilan ta'minot manbasi sifatida alternativ energiya manbalari asosidagi texnologiyalarida maishiy va maxsus elektr jihozlarini ishlash jarayonlari bilan tanishish, olingan natijalar asosida haftalik hisobot tuzish.

6 – haftada:

Elektr ta'minoti tizimlari mutaxassislik fanlari bo'yicha kelgusida bajariladigan kurs ishlari va amaliy mashg'ulot ishlariga dastlabki ma'lumotlarni yig'ish; o'z mutaxassisligi bo'yicha ish o'rnini tanlab tashkilot bilan institut o'rtasidagi, shartnomani rasmiylashtirish, kelajakdagi ish o'rniga talabnoma xatini olish;

amaliyot hujjatlarni rasmiylashtirish, yakuniy hisobotni tuzish va topshirish.

AMALIYOTNING TARKIBIY QISMI

Malakaviy ishlab chiqarish amaliyoti quyidagilardan iborat:

- elektr stansiya, podstansiya va elektr tarmoqlariga tegishli bo'lgan rasmiylashtirish hujjatlari bilan tanishish;
- elektr energiya ishlab chiqarish stansiyalaridan hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish darajasini o'rganish;
- elektr stansiya va podstansiyalarda ishlovchi elektr jihozlariga texnik xizmat ko'rsatish tashkil qilish;
- elektr stansiya va podstansiyalar tizimlarini loyihalash fanlari bo'yicha kurs ishlariga birlamchi ma'lumotlar yig'ish;
- zamonaviy ASKUE tizimi bilan yaqindan tanishish, funksional imkoniyatlarini o'rganish;
- elektr energiyasining sifat ko'rsatkichlarini va ularga tegishli standartlarni o'rganish;
- elektr energiyasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunini chuqur o'rganish.

Amaliyotning kundaligini to'ldirish

Talabanning malakaviy ishlab chiqarish amaliyotini o'tganligini tasdiqlovchi asosiy hujjat – kundalik hisoblanadi.

Kundalikda amaliyotning har bir kunida bajarilgan ishlarning tavsifi beriladi. Bundan tashqari talabanning qaysi ishlarida qatnashganligi to'g'risida to'liq ma'lumot beriladi. Kundalikdagi yozuvlar aniq shaklda olib borilishi kerak va amaliyot rahbarlari tomonidan tekshirilib turiladi. Kundalikda xo'jalik rahbarlari tomonidan talabanning ishiga tavsifnoma yoziladi va muhr bilan tasdiqlanadi.

Namuna uchun

“Uzbekgidroenergo” AJ
Boshqaruv raisi
A.Sanginovga

YO’LLANMA

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti “Energetika” fakultetining ___ bosqichidagi quyida ilovada (buyruq № _____) familiyasi va ismi keltirilgan talabalarni Siz boshqarayotgan korxonaga “Ishlab chiqarish-texnologik” amaliyotini o‘tash uchun 2023 yilning “___” _____dan “___” _____gacha yuborilmoqda. Sizdan talabalar amaliyotini o‘tish davomida hayot faoliyati xavfsizligi qoidalariga rioya qilishni ta’minlashingizni so‘raymiz.

“Energetika” fakulteti dekani

A.Isakov

“ETvaQTEM” kafedrası mudiri

D.Qodirov

OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

“TIQXMMI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI

“ENERGETIKA” FAKULTETI

**60710600 – Elektr energetikasi
(tarmoqlar va yo'nalishlar bo'yicha)**

AMALIYOT KUNDALIK DAFTARI



TOSHKENT – 2023

**60710600 – ELEKTR ENERGETIKASI (TARMOQLAR VA
YO'NALISHLAR BO'YICHA) TA'LIM YO'NALISHI
2-KURS _____ - GURUH TALABASINING**

AMALIYOT O'TISH KUNDALIGI

Familiyasi

Ismi

Otasining ismi

Amaliyot o'tadigan

joy

Amaliyot o'taydigan joydagi

rahbar

(F.I.Sh., ilmiy unvoni, lavozimi)

Institutdagi rahbar

(F.I.Sh., ilmiy unvoni, lavozimi)

Amaliyot o'tish vaqti «___» “_____” 2023 yildan

«___» “_____” 2023 yilgacha

Kafedrasi mudiri

D.B.Qodirov

«___» _____2023 yil.

1. Talabanning amaliyot o'tkazish uchun taqvimiy rejasi

№	Tashkilot nomi	O'rganiladigan muammo	Muddati	Sana	imzo
1	1.1.O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi qayta tiklanuvchi energiya manbaalari milliy ilmiy-tadqiqot instituti	Korxonada amaliyot o'tash bo'yicha buyruqlarni rasmiylashtirish;	1 kun	12.06.2023	
	1.2.“Fizika – quyosh” ilmiy tadqiqot instituti	Texnika xavfsizligi va mehnat muhofazasi bo'yicha ko'rsatma va maslahatlarni olish, amaliyotni o'tishda bajariladigan ishlarga topshiriq olish;	2 kun	13-14.06.2023	
		Korxonalarini elektr ta'minoti va taqsimlash, qayta tiklanuvchi energiya manbaalari asosida olinadigan elektr energiya, uzatish, taqsimlash, texnologik jarayonlar, texnik ko'rsatkichlar, ishlab chiqarishdagi ekspluatatsiya jarayonlari bilan tanishish.	2 kun	15-16.06.2023	
		Hafta davomida o'rganilgan ishlar va olingan natijalar asosida hisobot shakllantirish.	1 kun	17.06.2023	
2.1.O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi qayta tiklanuvchi energiya manbaalari milliy ilmiy-tadqiqot instituti 2.2.“Fizika – quyosh” ilmiy tadqiqot instituti “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ ning hududiy filiallari: 2.3.“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Surxondaryo viloyat hududiy filiali	Korxonada mavjud texnologik qurilmalar va ularning texnik parametrlari, ichki elektr tarmoqlarining texnik ekspluatatsiyasi sharoitlari bilan tanishib chiqish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va ularning elektr qurilmalari qismlari hamda mavjud elektr uskunalarning texnik holatlari, ish parametrlarini o'rganish	10 kun	19-30.06.2023		
	2.4.“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Buxoro viloyat hududiy filiali 2.5.“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Navoiy viloyat hududiy filiali 2.6.“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Samarqand viloyat hududiy filiali	Hafta davomida o'rganilgan ishlar va olingan natijalar asosida hisobot shakllantirish.	2 kun	24.06.2023 01.07.2023	

<p>2.7.“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Sirdaryo viloyat hududiy filiali</p> <p>2.8.“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Jizzax viloyat hududiy filiali</p> <p>2.9.“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Namangan viloyat hududiy filiali</p> <p>2.10.“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Toshkent viloyat hududiy filiali</p> <p>2.11.“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Toshkent shahar hududiy filiali</p> <p>2.12.“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Qashqadaryo viloyat hududiy filiali</p> <p>2.13. “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududiy filiali</p> <p>2.14. “Toshkent GES lar kaskadi” UK</p> <p>2.13.“O‘rtachirchiq GES lar kaskadi” UK</p>	<p>Elektr ta‘minot tarmoqlari, taqsimlash shitlari, shkaflar, avtomatik boshqarish vositalari, ishga tushirish va himoya qilish apparatlari, nazorat o‘lchov asboblari, elektr xavfsizlik jihozlarining holati, ulardan foydalanish elektrotexnologik, elektrotermik, elektr yoritish va nurlatish qurilmalarini elektr energiya bilan ta‘minot manbasi sifatida alternativ energiya manbalari asosidagi texnologiyalarida maishiy va maxsus elektr jihozlarini ishlash jaryonlari bilan amaliy tanishish.</p>	5 kun	03-07.07.2023	
	<p>Hafta davomida o‘rganilgan ishlar va olingan natijalar asosida hisobot shakllantirish.</p>	1 kun	08.07.2023	
	<p>Korxonada elektr ta‘minoti tizimlari parametrlari va ishlash prinsplari, uzatish taqsimlash bo‘yicha mutaxassislik fanlaridan kelgusida bajariladigan kurs ishlari va amaliy mashg‘ulot ishlariga dastlabki ma‘lumotlarni yig‘ish;</p>	5 kun	10-14.07.2023	
	<p>Hafta davomida o‘rganilgan ishlar va olingan natijalar asosida hisobot shakllantirish.</p>	1 kun	15.07.2023	
	<p>O‘z mutaxassisligi bo‘yicha tajribalar olish, ish o‘rnini tanlab tashkilot bilan institut o‘rtasidagi, shartnomani rasmiylashtirish, kelajakdagi ish o‘rniga talabnoma xatini olish;</p>	5 kun	17.07-21.07.2023	
	<p>Hafta davomida olingan natijalar asosida hisobot tayyorlash va olingan barcha hisobotlarni umumlashtirish va topshirish.</p>	1 kun	22.07.2023	

Universitetdagi rahbarning imzosi _____

2. Talabaning korxonada bo'limida kundalik bajaradigan ishlari

Sana	Biriktirilgan ish joyi	Bajarilgan ish.
12.06.2023	1.1.O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi qayta tiklanuvchi energiya manbaalari milliy ilmiy-tadqiqot instituti	Korxonada amaliyot o'tash bo'yicha buyruqlarni rasmiylashtirish;
13-14.06.2023		Texnika xavfsizligi va mehnat muhofazasi bo'yicha ko'rsatma va maslahatlarni olish, amaliyotni o'tishda bajariladigan ishlarga topshiriq olish;
15-16.06.2023	1.2.“Fizika – quyosh” ilmiy tadqiqot instituti	Korxonalarini elektr ta'minoti va taqsimlash, qayta tiklanuvchi energiya manbaalari asosida olinadigan elektr energiya, uzatish, taqsimlash, texnologik jarayonlar, texnik ko'rsatkichlar, ishlab chiqarishdagi ekspluatatsiya jarayonlari bilan tanishish.
17.06.2023		Hafta davomida o'rganilgan ishlar va olingan natijalar asosida hisobot shakllantirish.
19-30.06.2023	2.1.O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi qayta tiklanuvchi energiya manbaalari milliy ilmiy-tadqiqot instituti 2.2.“Fizika – quyosh” ilmiy tadqiqot instituti	Korxonada mavjud texnologik qurilmalar va ularning texnik parametrlari, ichki elektr tarmoqlarining texnik ekspluatatsiyasi sharoitlari bilan tanishib chiqish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va ularning elektr qurilmalari qismlari hamda mavjud elektr uskunalarning texnik holatlari, ish parametrlarini o'rganish
24.06.2023 01.07.2023	“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ ning hududiy filiallari:	Hafta davomida o'rganilgan ishlar va olingan natijalar asosida hisobot shakllantirish.
03-07.07.2023	2.3.“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Surxondaryo viloyat hududiy filiali 2.4.“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Buxoro viloyat hududiy filiali 2.5.“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Navoiy viloyat hududiy filiali 2.6.“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Samarqand viloyat hududiy filiali 2.7.“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ	Elektr ta'minot tarmoqlari, taqsimlash shitalari, shkaflar, avtomatik boshqarish vositalari, ishga tushirish va himoya qilish apparatlari, nazorat o'lchov asboblari, elektr xavfsizlik jihozlarning holati, ulardan foydalanish elektrotexnologik, elektrotermik, elektr yoritish va nurlatish qurilmalarini elektr energiya bilan ta'minot manbasi sifatida alternativ energiya manbalari asosidagi texnologiyalarida maishiy va maxsus elektr jihozlarni ishlash jarayonlari bilan amaliy tanishish.
08.07.2023	Sirdaryo viloyat hududiy filiali 2.8.“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ	Hafta davomida o'rganilgan ishlar va olingan natijalar asosida hisobot shakllantirish.
10-14.07.2023	Jizzax viloyat hududiy filiali 2.9.“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Namangan viloyat hududiy filiali 2.10.“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Toshkent viloyat hududiy filiali 2.11.“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ	Korxonada elektr ta'minoti tizimlari parametrlari va ishlash prinsplari, uzatish taqsimlash bo'yicha mutaxassislik fanlaridan kelgusida bajariladigan kurs ishlari va amaliy mashg'ulot ishlariga dastlabki ma'lumotlarni yig'ish;
15.07.2023	Toshkent shaxar hududiy filiali 2.12.“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ	Hafta davomida o'rganilgan ishlar va olingan natijalar asosida hisobot shakllantirish.
17.07-21.07.2023	Qashqadaryo viloyat hududiy filiali 2.13. “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiy filiali	O'z mutaxassisligi bo'yicha tajribalar olish, ish o'rnini tanlab tashkilot bilan institut o'rtasidagi, shartnomani rasmiylashtirish, kelajakdagi ish o'rniga talabnoma xatini olish;
22.07.2023	2.14. “Toshkent GES lar kaskadi” UK 2.13.“O'rtachirchiq GES lar kaskadi” UK	Hafta davomida olingan natijalar asosida hisobot tayyorlash va olingan barcha hisobotlarni umumlashtirish va topshirish.

Universitetdagi rahbarning imzosi _____

6. “Elektr ta’minoti va qayta tiklanuvchan energiya manbalari” kafedrası Elektr energetikasi” (tarmoqlar va yo’nalishlar bo’yicha) ta’lim yo’nalishi talabasi

_____ning
Talabani F.I.Sh.

O‘quv amaliyoti hisobotini qabul qilish hay’ati a’zolari tarkibi:

Rais: _____
F.I.Sh. imzosi:

A’zolar: _____
F.I.Sh. imzosi:

F.I.Sh. imzosi:

F.I.Sh. imzosi:

« ____ » « ____ » 2023 yildan « ____ » « ____ » 2023 yilgacha
o‘tkazgan

tanishuv amaliyotida yozgan hisoboti eshitildi.

Hisobot quyidagicha baholandi: (3-5 ball) _____ ball

1. В.И. Виссарианов, Г.В. Дерюгина, В.А. Кузнецова, Н.К. Малинин Солнечная энергетика // Учебное пособие для вузов. Подготовлено на кафедре нетрадиционных и возобновляемых источников энергии Московского энергетического института. Москва. 2008
2. Харченко Н.В. Индивидуальные солнечные установки. М.: Энергоатомиздат, 1991. -208 с.
3. Muxammadiyev M.M., Urishev B.U., Djuraev K.S. «Gidroenergetik qurilmalar». Darslik. –T.: “Fan va texnologiya”, 2015.
4. M. M. Muxammadiev, X.K. Tashmatov. Gidroenergetika izlanishlari. Darslik. - Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2011.
5. Muxammadiyev M.M., Tashmatov X.K., Energiya yig’uvchi qurilmalar. Darslik. - Toshkent: “Cho’lpon” , 2011.
6. Badalov A.S., Uralov B.R., Zenkova V.A., Shaazizov F.Sh. Gidroelektrostansiyalar. O’quv qo’llanma. – Toshkent: TIMI, 2009.
7. Vasilev Yu.S., Muhammadiyev M.M., Tashmatov X.K. Gidroenergetik obyektlar ekologiyasi. O’quv qo’llanma. Toshkent: ToshDTU, 2004.
8. N.Toshpo’latov, D.Qodirov Qayta tiklanuvchi energiya manbalari. O’quv qo’llanma - TIQXMMI, 2021.
9. D.Qodirov, A.Anarbayev Quyosh energetikasi. O’quv qo’llanma - “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti, 2022.
10. Клычев Ш.И., Мухаммадиев М.М., Аvezов Р.Р., Нетрадиционные и возобновляемые источники энергии. Т.: Изд-во «Фан ва технология», 2010 г. 192 стр.
11. Степанова В.Э. Возобновляемые источники энергии на с.х. предприятиях-М.: Агропромиздат. 1989.- 167с
12. Muhammadiyev M.M., Nizamov O.X. Gidroturbinalar. O’quv qo’llanma. – Toshkent: ToshDTU, 2006.